

Qoraqalpog‘iston Respublikasida **qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi**


2025- yil yanvar-sentabr oylari uchun

- I. Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi
- II. Qoraqalpog‘iston Respublikasi qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida
- III. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish
- IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni
- V. Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi bo‘yicha uslubiy tushuntirishlar va metama‘lumotlar

I. Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi **mahsulot (xizmat)lari hajmi**

Dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 12 129,3 mlrd so‘mni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar – 11 512,8 mlrd so‘mni, o‘rmon xo‘jaligi – 465,2 mlrd so‘mni, baliqchilik xo‘jaligi – 151,3 mlrd so‘mni tashkil qildi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida qishloq, o‘rmon va baliqchilik **xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o‘sish sur‘ati**



II. Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi **mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida**

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Amudaryo (2 320,2 mlrd so‘m), Beruniy (1 400,7 mlrd so‘m), To‘rtko‘l (1 298,4 mlrd so‘m), Ellikqal‘a (1 163,2 mlrd so‘m), Chimboy (1 085,3 mlrd so‘m) va Xojeli (653,0 mlrd so‘m) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Nukus shahri (75,7 mlrd so‘m), Mo‘ynoq tumani (153,3 mlrd so‘m) va Bo‘zatov tumanini (248,0 mlrd so‘m) keltirib o‘tish mumkin.

	Hajm mlrd so‘m	O‘sish sur‘ati % da
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	12 129,3	104,3
Nukus sh.	75,7	101,8
Amudaryo	2 320,2	103,2
Beruniy	1 400,7	103,6
Bo‘zatov	248,0	103,0
Qorao‘zak	469,1	107,9
Kegeyli	481,4	107,1
Qo‘ng‘irot	624,2	105,9
Qonliko‘l	479,6	103,4
Mo‘ynoq	153,3	107,3
Nukus	422,2	104,7
Taxiatosh	288,7	105,8
Taxtakopir	441,2	104,9
To‘rtko‘l	1 298,4	104,8
Xo‘jayli	653,0	101,5
Chimboy	1 085,3	102,8
Shumanay	525,1	103,5
Ellikqal‘a	1 163,2	106,4

Hududlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur‘ati tahlil qilinganda, yuqori o‘sish sur‘atlari Qorao‘zak (107,9 %), Mo‘ynoq (107,3 %), Kegeyli (107,1 %), Ellikqal‘a (106,4 %), Qo‘ng‘irot (105,9 %) va Taxiatosh (105,8 %) tumanlarida qayd etildi.

Boshqa hududlarga Xo‘jayli (101,5 %) tumanida va Nukus (101,8 %) shahrida hamda Chimboy (102,8 %), Bo‘zatov (103,0 %) tumanlarida esa aksincha o‘sish sur‘atlari pastligi kuzatildi.

III. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish


2025- yilning yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 11 415,4 mlrd so‘mni yoki 2024- yilning mos davriga nisbatan 104,1 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 4 329,2 mlrd so‘mni (106,7 %), chorvachilik mahsulotlari 7 086,2 mlrd so‘mni (102,2 %) tashkil qildi.

Hududlar kesimida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Amudaryo (2 178,8 mlrd so‘m), Beruniy (1 368,4 mlrd so‘m), To‘rtko‘l (1 264,3 mlrd so‘m) va Ellikqal‘a (1 106,4 mlrd so‘m) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Nukus shahri (53,2 mlrd so'm), Mo'ynoq tumani (111,4 mlrd so'm) va Bo'zatov tumanini (240,0 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Mo'ynoq (108,8 %), Qorao'zak (108,0 %), Kegeyli (106,9 %), Ellikqal'a (106,2 %) va Qo'ng'iro't (105,8 %) tumanlarida qayd etildi. Nukus (100,9 %) shahri va Xo'jayli (101,3 %), Chimboy (102,7 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 69,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 26,9 % i fermer xo'jaliklariga, 3,8 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlari hajmi 4 329,2 mlrd so'mni yoki 2024- yilning mos davriga nisbatan 106,7 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida dehqonchilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Amudaryo (1 180,1 mlrd so'm), To'rtko'l (457,1 mlrd so'm), Beruniy (441,9 mlrd so'm), Ellikqal'a (420,6 mlrd so'm) va Chimboy (268,4 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Nukus shahri (12,4 mlrd so'm), Mo'ynoq tumani (13,2 mlrd so'm) va Bo'zatov tumanini (31,0 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Mo'ynoq (135,3%), Qorao'zak (126,3 %), Kegeyli (122,7 %), Ellikqal'a (114,5 %) tumanlarida qayd etildi. Qonliko'l (94,1 %), Taxiotosh (96,0 %) tumanlarida va Nukus shahrida (99,2 %) esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 255,1 ming tonna donli ekinlar (2024- yilning yanvar-sentabr iga nisbatan 18,0 % ga ko'p), 66,1 ming tonna kartoshka (0,6 % ga ko'p), 247,8 ming tonna sabzavotlar (83,6 %), 157,5 ming tonna poliz ekinlari (9,3 % ga ko'p), 47,1 ming tonna meva va rezavorlar (0,4 % ga ko'p), 6,8 ming tonna uzum (10,8 % ga ko'p) yetishtirildi.



Yetishtirilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari

	Yanvar-sentabr 2025 y.	O'sish sur'ati % da
Donli ekinlar, ming tonna	255,1	118,0
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	187,0	109,2
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	44,5	2,0 m.
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	23,6	102,4
Kartoshka, ming tonna	66,1	100,6
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	19,9	117,3
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	44,8	92,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1,4	3,8 m.
Sabzavotlar, ming tonna	247,8	83,6
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	70,7	108,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	171,8	75,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	5,3	127,1
Poliz ekinlari, ming tonna	157,5	109,3
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	68,7	105,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	85,1	110,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	3,7	169,3
Meva va rezavorlar, ming tonna	47,1	100,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	17,7	105,5
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	23,9	100,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	5,5	87,5
Uzum, ming tonna	6,7	110,8
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	1,9	146,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	4,3	100,9
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0,5	105,1

2025- yil yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, donli ekinlar yetishtirishning 73,3 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 17,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 9,3 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

**2025- yil yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi
dehqonchilik mahsulotlari hajmi (tonna)**

	<i>Donli ekinlar</i>	<i>Kartoshka</i>	<i>Sabzavotlar</i>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	255 146	66 102	247 801
Nukus sh.	-	20	2 604
Amudaryo	66 496	16 330	56 548
Beruniy	28 340	8 317	20 379
Bo'zatov	2 388	1 016	2 126
Qorao'zak	9 754	1 479	6 328
Kegeyli	9 004	1 122	7 531
Qo'ng'iro't	13 224	3 933	14 492
Qonliko'l	18 379	1 082	12 158
Mo'ynoq	1 355	252	953
Nukus	14 353	2 499	16 742
Taxiatosh	4 622	1 607	5 423
Taxtak'o'pir	10 145	2 432	5 367
To'rtko'l	22 681	12 641	27 274
Xo'jayli	9 073	3 129	7 387
Chimboy	13 676	3 831	22 915
Shumanay	14 053	1 442	13 089
Ellikqal'a	17 607	4 971	26 487

Shunga mos ravishda kartoshkaning 30,0 % i fermer xo'jaliklari, 67,8 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 2,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, shuningdek, sabzavotlarning 28,5 % i fermer xo'jaliklari, 69,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 2,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, poliz ekinlarining 43,6 % i fermer xo'jaliklari, 54,0 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 2,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, meva va rezavorlarning 37,6 % i fermer xo'jaliklari, 50,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 11,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, uzumning 27,9 % i fermer xo'jaliklari, 64,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 7,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

**2025- yil yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan ayrim turdagi
dehqonchilik mahsulotlari hajmi (tonna)**

	<i>Poliz ekinlari</i>	<i>Meva va rezavorlar</i>	<i>Uzum</i>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	157 512	47 086	6 754
Nukus sh.	115	24	68
Amudaryo	34 558	19 952	2 315
Beruniy	21 759	4 858	863
Bo'zatov	2 073	611	59
Qorao'zak	5 398	839	124
Kegeyli	4 247	1 614	81
Qo'ng'iro't	4 743	1 800	477
Qonliko'l	8 733	938	242
Mo'ynoq	559	111	14
Nukus	8 228	1 025	267
Taxiatosh	3 561	782	186
Taxtakopir	4 078	623	205
To'rtko'l	18 046	5 138	767
Xo'jayli	5 150	1 253	293
Chimboy	13 987	2 204	226
Shumanay	8 136	900	71
Ellikqal'a	14 143	4 416	497

Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari hajmi 7 086,2 mlrd so'mni yoki 2024- yilning mos davriga nisbatan 101,4 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Amudaryo (998,7 mlrd so'm), Beruniy (926,6 mlrd so'm), To'rtko'l (807,3 mlrd so'm), Ellikqal'a (685,8 mlrd so'm) va Chimboy (586,1 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Nukus shahri (40,8 mlrd so'm), Mo'ynoq tumani (98,2 mlrd so'm) va Taxiatosh tumanini (173,8 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari sur'atlari Qonliko'l (115,4 %), Taxiatosh (114,8 %), Nukus (112,1 %), Mo'ynoq (105,3 %), Shumanay (102,3 %) tumanlarida qayd etildi. Qorao'zak (99,5 %), Kegeyli (100,2 %), Beruniy (101,0 %) va Ellikqal'a (101,0 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 86,4 ming tonna go'sht, 270,0 ming tonna sut, 282,1 mln dona tuxum, 1,2 ming tonna qirqib olingan jun, 86,4 ming dona qorako'l teri, 1,0 ming tonna pilla yetishtirildi va 6,9 ming tonna baliq ovlandi.

Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan go'sht hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,0 % ni, sog'ib olingan sut – 100,3 % ni, olingan tuxum – 104,1 % ni, qirqib olingan jun – 102,0 % ni, olingan qorako'l teri – 101,4 % ni, yetishtirilgan pilla – 101,8 % ni hamda ovlangan baliqlar – 111,9 % ni tashkil qildi.

Yetishtirilgan asosiy turdagi
chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar

	Yanvar-sentabr 2025 y.	O'sish sur'ati % da
Go'sht (tirik vaznda), ming tonna	86,4	102,0
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	3,9	111,5
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	80,7	100,9
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1,8	147,3
Sut, ming tonna	270,0	100,3
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	23,1	106,5
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	243,5	99,5
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	3,4	116,8
Tuxum, mln. dona	282,1	104,1
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	25,1	117,3
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	226,1	100,8
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	30,9	122,2
Jun, tonna	1 213,0	102,0
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	208,0	103,5
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	982,0	102,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	23,0	82,1
Qorako'l teri, ming dona	86,4	101,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	5,5	102,2
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	79,6	100,9
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1,3	133,6
Baliq, ming tonna	6,9	111,9
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	2,9	119,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1,2	105,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2,8	108,1

2025- yil yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan go'shtning umumiy hajmidan 4,6 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 93,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 2,1 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Shunga mos ravishda sog'ib olingan sutning 8,6 % i fermer xo'jaliklari, 90,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 1,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

Shu bilan birga, olingan tuxumning 8,9 % i fermer xo'jaliklariga, 80,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 10,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

Shuningdek, qirqib olingan junning 17,1 % i fermer xo'jaliklariga, 81,0 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

Bundan tashqari, olingan qorako'l terining 6,3 % i fermer xo'jaliklariga, 92,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

O'z navbatida, ovlangan baliqlarning 41,8 % i fermer xo'jaliklariga, 17,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 40,8 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelganligini qayd etish lozim.

2025- yil yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi
chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar hajmi (tonna)

	Go'sht <i>(tirik vaznda)</i>	Sut	Tuxum, <i>ming dona</i>	Baliq
Qoraqalpog'iston Respublikasi	86 406	269 990	282 101	6 946
Nukus sh.	549	1 103	2 517	5,9
Amudaryo	11 929	39 227	48 144	2 071
Beruniy	10 675	38 672	45 880	612
Bo'zatov	2 770	6 699	4 817	74
Qorao'zak	4 056	7 599	7 267	75
Kegeyli	4 355	11 415	7 670	228
Qo'ng'iro't	4 575	16 925	27 407	316
Qonliko'l	3 224	8 087	9 749	81
Mo'ynoq	1 268	3 330	3 747	122
Nukus	2 255	7 941	8 091	191
Taxiatosh	2 057	7 566	5 074	186
Taxtakopir	4 025	8 181	5 395	610
To'rtko'l	8 850	37 813	35 820	414
Xo'jayli	6 148	18 081	10 013	226
Chimboy	7 751	17 806	20 663	739
Shumanay	4 150	9 794	10 946	164
Ellikqal'a	7 772	29 752	28 902	832

IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2025- yilning 1- oktabr holatiga barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 1 247,3 ming boshga yetdi, (2024- yilning 1- oktabr holatiga nisbatan 0,7 % ga ko'p), sigirlar 364,6 ming boshga (0,3 % ga ko'p), qo'y va echkilar 1 286,5 ming boshga (1,8 % ga ko'p), parrandalar 5 667,4 ming boshga (6,1 % ga ko'p) yetdi.

2025- yilning 1- oktabr holatiga xo'jaliklar toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Ming bosh	O'sish sur'ati
Yirik shoxli qoramollar	1 247,3	100,7
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	72,3	102,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 160,0	100,4
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	15,0	114,3
shundan sigirlar	364,6	100,3
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	29,4	105,4
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	329,3	99,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	5,9	113,5
Qo'y va echkilar	1 286,5	101,8
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	185,1	104,3
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 060,6	100,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	40,8	125,5
Otlar	29,0	103,2
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	7,5	106,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	20,4	100,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1,1	138,0
Parrandalar	5 667,4	106,1
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	693,4	137,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	4 267,6	100,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	706,4	121,4

2025- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 5,8 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 93,0 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda sigirlarning umumiy sonidan 8,1 % i fermer xo'jaliklariga, 90,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, shuningdek, qo'y va echkilarning umumiy sonidan 14,4 % i fermer xo'jaliklariga, 82,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 3,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, parrandalar umumiy sonidan 12,2 % i fermer xo'jaliklariga, 75,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 12,5 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

2025- yilning 1- oktabr holatiga
chorva mollari va parrandalar bosh soni (ming bosh)

	Yirik shoxli qoramollar	shundan, sigirlar	Qo'y va echkilar	Parrandalar,
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 247,3	364,6	1 286,5	5 667,4
Nukus sh.	10,0	3,1	9,7	82,2
Amudaryo	175,7	49,0	113,4	1 170,9
Beruniy	166,6	43,3	83,3	1 074,1
Bo'zatov	39,8	13,6	31,8	51,0
Qorao'zak	41,7	14,9	106,6	294,5
Kegeyli	59,2	17,9	39,2	155,3
Qo'ng'iro't	76,5	24,1	109,5	332,4
Qonliko'l	38,0	10,5	36,1	100,9
Mo'ynoq	29,4	10,7	37,7	75,3
Nukus	42,6	14,6	31,9	125,5
Taxiatosh	27,0	10,0	19,3	162,5
Taxtakopir	50,9	21,6	165,7	283,3
To'rtko'l	138,2	39,0	171,8	437,0
Xo'jayli	61,2	16,8	31,6	200,1
Chimboy	85,7	20,7	67,1	305,0
Shumanay	76,1	18,3	89,8	176,5
Ellikqal'a	128,7	36,4	142,0	640,8

V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarish hajmi – sohada o'z iste'moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo'jaligida, o'rmonchilik va yog'och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Fermer xo'jaligi – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik sub'ektidir.

Dehqon xo'jaligi – meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (ikkilamchi ijara) huquqi asosida dehqon xo'jaligi boshlig'iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni va realizatsiya qilishni dehqon xo'jaligi a'zolarining mehnati asosida amalga oshiruvchi xo'jalikdir.

Tomorqa xo'jaligi – shaxsiy tomorqa yer uchastkalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ham erkin savdo uchun, ham oila ehtiyojlari uchun yetishtirish (qayta ishlash) bilan bog'liq mehnat faoliyatidir.

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi sub'ekt hisoblanadi.

Mollar bosh soni – xo'jalik toifalari bo'yicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdagi chorva mollarini o'z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo'y va echkilar, cho'chqalar va h.k.)

Go'sht yetishtirish – so'yish uchun sotilgan hamda o'z xo'jaligida so'yilgan barcha turdagi qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o'z ichiga oladi.

Sut yetishtirish – yosh mollarga ichirish uchun sog'ib olingan sut va og'iz sutini qo'shgan holda, haqiqatda sog'ib olingan sigir, echki, qo'y, biya va tuya sutlari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi sog'ib olishga kiritilmaydi.

Tuxum yetishtirish – barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorlarda jo'ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o'z ichiga oladi.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/qishloq-xo-jaligi-va-ekologiya/685-qishloq-o-rmon-va-baliqchilik-xo-jaligi-mahsulot-xizmat-lari-yalpi-ishlab-chiqarishini-hisoblash-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Qishloq xo'jaligi va atrof-muhit
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
N. Madreymov
61 222-76-07 (9610)

Manzil:
230103, Nukus, A. Dosnazarov
ko'chasi, 97 a-uy
Pochta: info@qrstat.uz
